

INGLIZ TILIDA IDIOMALAR VA ULARNING MA'NOLARI

Raxmonqulova Feruza Akmal qizi

O'zDJTU, ingliz tili 3-fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Ingliz tili, boshqa tillar kabi, o'ziga xos ifodalash usullariga ega. Bu ifodalardan biri idiomalar bo'lib, ular tilning boyligini va madaniyatini aks ettiradi. Idiomalar, odatda, o'zlarining lug'aviy ma'nolaridan farq qiladigan, lekin muayyan kontekstda ma'lum bir mazmuni anglatadigan iboralardir. Ushbu maqolada ingliz tilidagi idiomalar, ularning turlari, ma'nolari va ulardan qanday foydalanish haqida batafsil ma'lumot beriladi.*

Kalit so'zlar: *Idioma, Back to the drawing board, talk like a dutch uncle, carry a torch for somebody, half a loaf is better than none, win something hands down.*

Idiomalar Nima? Idiomalar — bu tilning o'ziga xos, aniq bir ma'noni anglatadigan iboralardir. Ular ko'pincha bir nechta so'zlardan iborat bo'lib, ularning birgalikda ishlatilishi orqali yangi ma'no hosil qiladi. Misol uchun, "kick the bucket" iborasi to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinganda "chelakni tepish" degan ma'noni anglatadi, lekin aslida bu ibora "o'lish" degan ma'noni anglatadi.

Idiomalar Turlari

Idiomalar turli turlarga bo'linadi. Ularning ba'zilari quyidagilar:

1. Frazal Idiomalar: Bu turdagi idiomalar ko'pincha fe'l va boshqa so'zlardan iborat bo'ladi. Masalan, "give up" (tashlash) va "run out of" (tugamoq).

2. Metaforik Idiomalar: Bu idiomalar tasviriy ma'noda ishlatiladi. Masalan, "barking up the wrong tree" (noto'g'ri yo'lda yurmoq) aslida biror narsani noto'g'ri tushunish yoki noto'g'ri yo'nalishda harakat qilishni anglatadi.

3. Klassik Idiomalar: Ushbu turdagi idiomalar tarixiy yoki madaniy kontekstga asoslanadi. Masalan, "the ball is in your court" (to'p sizning maydoningizda) — bu ibora qaror qabul qilish yoki harakat qilish mas'uliyati boshqa kishiga o'tganini anglatadi.

Idiomalar va Ularning Ma'nolari

Quyida ba'zi mashhur ingliz idiomalarining ro'yxati va ularning ma'nolari keltirilgan:

1. To be on the same page- ingliz tilidagi eng mashhur idiomalardan biri bo'lib, tom ma'noda "bir sahifada bo'lmoq" deb tarjima qilinadi. Odamlar bir sahifada bo'lishganda, bu ular biron-bir masalada o'zaro rozi yoki hamfikir bo'lishlarini anglatadi. Idioma so'zlashuv nutqida ham, biznes aloqalarida ham qo'llanilishi mumkin. O'zbek tilida "bir-birini tushunish", "bir xil fikr yuritish" yoki "bir nuqtai nazarga ega bo'lish" de berilishi mumkin.

2. Hang on by (one's) fingernail-tom ma'noda "tirmoqda osilib turmoq". Idioma kimdir o'ta xavfli vaziyatga tushib qolganda qo'llaniladi va u erishgan, qadrlagan barcha narsalar: hayoti, farovonligi, ishdagi yutuqlar, sevimli odam bilan munosabatlar yoki kuchli do'stlik tugashi mumkin. "Hang on by fingernail" mua'llaq holatni tasvirlaydi. O'zbek tiliga idioma "qil ustida", "og'ir vaziyat" deb tarjima qilinadi.

3. To cut someone deep-so'zma-so'z "biror kishini chuqur kesib olmoq". Ma'lumki, o'tkir kesuvchi narsalardan foydalanmasdan ham biron bir kishiga jarohat yetkazish mumkin. Odam sizdan kutmagan, juda yoqimsiz va g'azablantiradigan so'zlarni eshitishi uning ko'z o'ngia siz xoinga aylanishingi uchun kifoya qiladi. Idioma kimgadir ma'naviy zarar yetkazishni anglatadi va o'zbek tiliga "nafsoniyatga tegish", "qattiq xafa qilish", "qalbni yaralash" deb tarjima qilinishi mumkin.

4. Fruits of one's labor-qishloq xo'jaligidan oddiy nutqqa kelgan ibora, so'zma-so'z "biror kishining mehnati mevalari". Misol uchun, olma daraxtlarini o'stiradigan bog'bon dastlab daraxt ekdi, keyin ularni sug'oradi, oziqlantiradi, novdalarni kesadi, keyin esa juda ko'p mazali olma oladi. Uning holatida olma "uning ishi mevasi" dir. Xuddi shu tarzda, sizning mehnatingining samarasi yaxshi bajarilgan ish uchun mukofotdir, bu siz olgan har qanday foyda bo'lishi mumkin-tugallangan kitob, ajoyib ish haqi yoki biror ijodiy asar. O'zbek tilida iborani "mehnt samarasi" yoki "mehnat natijasi" deb tarjima qilish mumkin.

5. Win something hands down-bu ibora tom ma'noda "qo'lni pastga tushirgan holda biron narsani yutib olmoq" deb tarjima qilinishi mumkin. Buni g'alaba qozonish kimgadir nihoyatda oson bo'lgan holatlarda aytish mumkin. buning uchun mutlaqo harakat talab etilmaydi, chunki g'alaba o'zi qo'lingizga kelayotgan bo'ladi. Bu atama poygadan kelib chiqqan bo'lib, unda jokeylar fizginni pastga tushirib, g'alaba naqd deb hisoblaydilar.

6. Half a loaf is better than none-tom ma'noda "yo'qdan ko'ra yarim bo'lak non bo'lgani yaxshi". Ushbu idioma asosidagi fikr juda aniq-inson och qolgan vaqtda yarim bo'lak nonni iste'mol qilish yoki umuman hech narsa

yemaslikdan birini tanlashga majbur bo'lsa, birinchi variantni afzal ko'radi. Ushbu ibora odatda o'ziga va qarindoshlariga tasalli sifatida qo'llaniladi. Qimmatbaho narsani xohlaysiz, lekin arzonroq variant bilan qanoat qilishingiz kerak.

7. Carry a torch for somebody-so'zma-so'z "biror inson uchun mash'ala olib yurmoq". Bu kimgadir oshiq bo'lmoq, doimiy ravishda u odam haqida o'ylamoq ma'noni anglatadi. Ko'pincha, bu ibora yashirin yoki javobsiz sevgi haqida gap ketganda ishlatiladi. Idiomada sevgi yorqin alangaga o'xshatilgan. Javobsiz sevgi egalari o'zlarining his-tuyg'ulari alangasini olib yuradilar.

8. Talk like a Dutch uncle-so'zma-so'z "Gollandiyalik amaki kabi gapirmoq" degan ma'noni anglatadi. "Gollandiyalik amaki" sizga qanday yashashni o'rgatish maqsadida keraksiz maslahatlar beradigan odam. Gollandiyaliklar juda amaliy va o'jar odamlar, ular doimo o'zlarini haq deb o'ylashlari sababli, shundy idioma paydo bo'ldi. "Talk like a Dutch uncle" "aql o'rgatmoq", "ayblamoq", "otlarcha nasixat qilmoq" ma'nolarida ishlatiladi.

9. Back to the drawing board-hammasini boshidan boshlamoq, so'zma-o'z-"chizma taxtasiga qaytmoq". Ibora inson muvaffaqiyatsizlikka uchragan va hammasini boshidan boshlanishiga to'g'ri keladigan holatlarda qo'llaniladi. U o'z xatti-harakatlar, rejalari, xulq-atvori va boshqalarni qayta ko'rib chiqishi kerak bo'ladi. Ushbu inglizcha idioma ikkinchi Jahon urushi davrida paydo bo'lgan bo'lib, deyarli barcha harbiy loyihalar avval doskada chizilgan va keyin amalga oshirilgan. Agar loyiha muvaffaqiyatsiz chiqsa, uni ishlab chiquvchilar chizilgan taxtaga qaytib, tuzatishlar kiritishar edi, ko'pincha esa hamma narsani boshidan boshlashga to'g'ri kelardi.

4. Break the ice: Suhbatni boshlash yoki noqulay vaziyatni yumshatish.

5. Burn the midnight oil: Kechasi ishlash yoki o'qish.

6. Hit the nail on the head: Muammoni to'g'ri aniqlash yoki to'g'ri fikr bildirish.

7. Let the cat out of the bag: Sirni oshkor qilish.

8. Piece of cake: Oson ish.

Idiomalarni Qanday Ishlatish

Idiomalarni to'g'ri ishlatish tilni yanada boyitadi va muloqotni qiziqarli qiladi. Biroq, idiomalarni ishlatishda ehtiyot bo'lish zarur, chunki ularning ma'nolari kontekstga bog'liq bo'lishi mumkin. Yana bir muhim jihat shundaki,

idiomalarni qo'llashda ularning madaniy konteksti ham inobatga olinishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, Ingliz tilidagi idiomalar — bu tilning boyligi va madaniyatining ajralmas qismi. Ular muloqotni qiziqarli va rang-barang qiladi, shuningdek, tilni o'rganayotganlarga yangi ifodalash usullarini o'rganishga yordam beradi. Idiomalarni to'g'ri ishlatish esa til ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, ingliz tilini o'rganayotganlar uchun idiomalarni o'rganish va ulardan foydalanish juda muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. McCarthy, Michael, and Felicity O'Dell. *English Idioms in Use*. Cambridge University Press, 2002.
2. Celce-Murcia, Marianne, and Elite Olshtain. *Discourse and Context in Language Teaching*. Cambridge University Press, 2000.
3. Seidl, Jennifer, and Wendy McMordie. *English Idioms*. Oxford University Press, 1996.